

«E-STAT» ELEKTRON SHAKLDAGI STATISTIK HISOBOTLARNI YIG'ISH SAYTINING AVTOMATLASHTIRILISHI

Abdusalomova Istoraxon Ilxom qizi

KMO va STI ti 3 kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada «E-stat» elektron shakldagi statistik hisobotlarni yig'ish saytining avtomatlashtirilishi haqida fikr yuritilgan bo'lib, uning statistik ma'lumotlar yig'ishdagi ahamiyati, qulayliklari va ma'lumotlarni qayta ishlash uchun dasturiy komplekslarni yaratishi aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: statistika, E-stat, elektron xizmatlar, AKT-axborot kommunikatsiya texnologiyalari, davlat statistika qo'mitasi, local hisoblash, statistik organlar.

ASOSIY QISM

Bugungi globallashuv davrida shu narsa ma'lumki, har handay statistik tizim faoliyatining samaradorligi uning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (keyingi o'rinnarda AKT) foydalanish darajasiga bog'liqdir. Davlat statistika qo'mitasida 1997 yilda birinchi marta AKT haqida so'z yuritila boshladi. Aynan o'sha yildan boshlab statistika hodimlari shahsiy kompyuterlar bilan ta'minlana boshlandi va ushbu jarayon statistik ma'lumotlarni elektron shaklda qayta ishlashga o'tish uchun birinchi qadam bo'ldi. Davlat statistika qo'mitaasining barcha bo'linmalarida lokal hisoblash tarmoqlari qurila boshlandi. 2003 yilga qadar statistika organlarini bosqichma-bosqich hisoblash texnikasi bilan ta'minlandi va statistik ma'lumotlarni qayta ishlash uchun dasturiy komplekslarni yaratish, takomillashtirish ishlari amalga oshirildi. 2004 yilda Davlat statistika qo'mitaasi tizimida Markaziy apparat va hududiy statistika boshhqarmalari o'rtasida ma'lumotlar uzatishning ulanish tezligi 128 kb/s. bo'lgan korparativ tarmog'i yaratildi. Biroq tuman va shahar statistika bo'limlari orasidagi aloqa esa dial-up orhali amalga oshirilgan. Statistika organlarinining statistik ma'lumotlarini

yig'uvchi, qayta ishlovchi, saqllovchi va foydalanish uchun axborot resurslari to'plami, axborot tizimlari, dasturiy-apparat ta'minoti va telekommunikatsiya qurilmalarini ifodalovchi Davlat statistika qo'mitasining yagona axborot tizimi shakllantirildi.

Statistik ma'lumotlarni yig'ish jarayonini avtomatlashtirishni «eStat» elektron shakldagi statistik hisobotlarni yig'ishning avtomatlashtirilgan axborot tizimi amalga oshiradi, uni tadbiq etish esa bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

Avtomatlashtirilgan axborot tizimi «eStat 2.0» dan foydalanishning afzallikkleri quyidagilar:

- 1) davlat statistika hisobotlarini topshirishda vaqt va moliyaviy harajatlarni kamaytirish; (tejash imkoniyati);
- 2) hisobot shakllarini talablarga muvofiq to'g'ri to'ldirilganligini boshlang'ich nazorat qilish orqali statistik ma'lumotlarning sifatini oshirish;
- 3) berilgan ma'lumotlarnig mahfiyligi;
- 4) statistik hisobotlarning tezkor va o'z vaqtida yangilanishi;
- 5) axborotni kiritish va qayta ishslash bo'yicha muntazam ishlar hajmini kamaytirish.

Tizimli statistik vazifalarni amalga oshirish uchun, statistik ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishslash jarayonlari maxsuslashtirilgan dasturiy majmular asosida amalga oshiriladi. Ushbu dasturiy komplekslar Davlat statistika qo'mitasining o'z resurslari tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ma'lumotlar kiritish, ma'lumotlarni to'g'rakash, yaxlitlik tekshiruvini o'tkazish va ma'lumotlarnig mantiqiy va arifmetik echimlarga muvofiqligini ta'minlash imkonini beradi. Ushbu imkoniyatlar yordamida, statistika hodimlari har qanday davr uchun umumiy ma'lumotlarni olishi va tahlil qilishi mumkin.

Hozirgi kunda Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb-saytida sanoat tarmoqlarini, milliy iqtisodiyot va hududiy sohalarini rivojlantirish, hamda islohotlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotni liberallashtirish, ishlab chiqarish texnologiyalarini qayta jihozlash va modernizatsiya qilish, xom-ashyoni chuqur qayta ishslash, respublika hududlarini umumiy rivojlanishi, aholi turmush darajasini yanada yaxshilash bo'yicha

qabul qilingan dasturlarni amalga oshirish jarayonini yanada to'liqroq tavsiflaydigan, tezkor va aniq statistik ma'lumotlar e'lon qilinmohda (1-rasm).



1-rasm. E-stat saytining bosh sahifasi

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va interaktiv davlat xizmatlari Boshharmasi rejalashtirish faoliyatini amalga oshirish va muvofiqlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va joriy etish, Davlat statistika qo'mitasida yagona texnologik siyosatni aniqlash, dasturiy komplekslar va texnologik platformalarga alohador ichki standartlarni aniqlashni amalga oshiradi. Davlat statistika qo'mitaasi tizimidagi idoralararo axborot almashinushi uchun reglament va mehanizmlarini ishlab chiqishni amalga oshirishda ishtiroy etish, axborot resurslarini, davlat interaktiv xizmatlarini va dasturiy-texnik ta'minotlarni rivojlantirishga qaratilgan ahamiyatli yo'naliislarni aniqlashda ham ishtiroy etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. И.И. Елисеева Общая теория статистики. 5-е изд. М.: Финансы и статистика, 2005
2. Ефимова Н.В. Практикум по общей теории статистики. 2-е изд. М: Финансы и статистика.
3. N.M. Soatov, Tillaxodjaev Bozor jayonlari indeks tahlili. - T.:”Iqtisodiyot”, 2005, 248b.
4. Башкатов О.Э. и др. Общая теория статистики. 5-е изд. -М.: Финансы и статистика, 2006, 105c.
5. www.stat.uz